


Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2020- yil yanvar-oktabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 29 176,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (97,9 %) ni tashkil etdi.



B– Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeks hisobida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 6,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 3,9 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 5,1 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash- 9 % ga o'sishi kuzatildi.


**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da



Ishlab chiqaradigan sanoat



2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28573,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,9 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 187 731 dona engil avtomobil ishlab chiqarilib (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 10,0 % ga o'sgan), 51 979,0 tonna kalava ip (9,7 %), 128 897,8 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (16,7 %), 5 400,0 tonna yurgizuvchi g'ildiraklar, qismlari va ularni jihozlari (6,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Yengil avtomobillar, dona	170702	187731	17029
Paxtadan yigirilgan ip, tonna.	47382,8	51979	4596,2
Aroq, ming litr.	650,2	653,6	3,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna.	110481	128897	18416
Paxta tolasi, tonna.	20299,5	37187,5	16888
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna.	10792,6	4589	-6203,6

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar - 1,1 m. ga oshdi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida 66 481 dona "Cobalt" (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 146,7 %), 57 694 dona "Nexia T-250" (94,0 %), 41 799 dona "Lacetti-Gentra" (121,0 %), 21 757 dona "Spark" (115,2 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, dona



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 453,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,6 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,1 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida




2020-yilning yanvar-oktabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar-oktabr	2020- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	424.5	248.3	-176.2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	57.8	60.6	2.8
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm.	244.4	303.6	59.2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida

2020-yilning yanvar-oktabr oylarida



Sanoat mahsulotlari	2019- yil yanvar- oktabr	2020- yil yanvar- oktabr	Farqi +/-
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	29.9	34.9	5
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	9.3	7.1	-2.2
To'qimachilik chiqindilari, t	568	1024	456

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 16,7 %, hamda to'qimachilik chiqindilari 80,3 % ga oshganligi kuzatildi, shuningdek, oqava suvlarni shlami berish bo'yicha xizmatlar – 23,7 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21 904,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 75,1 % ni tashkil etdi.

**2019- yil
yanvar-oktabr**

Ulushi % da

7,4

92,6

Oziq-ovqat mahsulotlari

**2020- yil
yanvar-oktabr**

Ulushi % da

8,4

91,6

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2019- yil yanvar-oktabr oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumaniga to'g'ri kelib, 77,6 % ni, shuningdek, Andijon shahar 5,5 % ni, Xo'jaobod tumani 2,8 % ni, Oltinko'l tumani 1,8 % ni hamda Shahrixon tumani 1,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Izboskan (136,3 %), Xo'jaobod (125,2 %), Oltinko'l (112,5 %), Qo'rg'ontepa (106,0 %), Bo'ston (103,7 %), Ulug'nor (103,7 %) tumanlarida hamda Andijon shahrida (105,2 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab

chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 195,2	5,5	105,2		111,2	0,5	98,6
	Andijon shahar				Xonobod shahar		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	343,1	1,6	100,4		16 997,0	77,6	101,5
	Andijon				Asaka		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	204,6	0,9	97,5		217,0	1,0	100,4
	Baliqchi				Buloqboshi		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	138,9	0,6	103,7		247,0	1,1	91,5
	Bo'ston				Jalaquduq		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	323,5	1,5	136,3		89,1	0,4	103,7
	Izboskan				Ulug'nor		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	158,7	0,7	101,0		395,1	1,8	112,5
	Marhamat				Oltinko'l		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	211,9	1,0	101,1		603,1	2,8	125,2
	Paxtaobod				Xo'jaobod		
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	372,5	1,7	95,0		296,3	1,4	106,0
	Shahrixon				Qo'rg'ontepa		

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 4 758,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 16,3 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida

	Mlrd. so'm			Ulushi % da		O'sishi % da	
	29 176,1			100,0		103,9	
	Andijon viloyati *						
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4 799,0	16,4	117,4		1 058,9	3,6	104,6
	Andijon shahar				Xonobod shahar		
	Mlrd. cym	Ulushi % da	O'sish sur'ati		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	672,9	2,3	101,5		17 465,0	59,9	103,0
	Andijon				Asaka		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	547,5	1,9	98,7		232,4	0,8	100,9
	Baliqchi				Buloqboshi		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	229,6	0,8	103,3		512,2	1,8	107,6
	Bo'ston				Jalaquduq		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	562,2	1,9	145,8		192,9	0,7	100,6
	Izboskan				Ulug'nor		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	273,0	0,9	106,2		491,3	1,7	122,0
	Marhamat				Oltinko'l		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	361,6	1,2	107,1		623,2	2,1	110,9
	Paxtaobod				Xo'jaobod		
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	550,4	1,9	96,5		604,0	2,1	108,3
	Shahrixon				Qo'rg'ontepa		

* shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishini, Shahrixon (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 96,5 %), Baliqchi 98,7 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.


Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da		Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da
96,5	Shahrixon	95,0
98,7	Baliqchi	97,5
100,6	Ulug'nor	103,7
100,9	Buloqboshi	100,4
101,5	Andijon	100,4
103,0	Asaka	101,5
103,3	Bo'ston	103,7
104,6	Xonobod sh	98,6
106,2	Marhamat	101,0
107,1	Paxtaobod	101,1
107,6	Jalaquduq	91,5
108,3	Qo'rg'ontepa	106,0
110,9	Xo'jaobod	125,2
117,4	Andijon sh	105,2
122,0	Oltinko'l	112,5
145,8	Izboskan	136,3

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Izboskan (2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 145,8 %), Oltinko'l (122,0 %), Xo'jaobod (110,9 %), Qo'rg'ontepa (108,3 %), Jalaquduq (107,6 %), Paxtaobod (107,1 %), Marhamat (106,2 %), Xonobod (104,6 %), Bo'ston (103,3 %) va Asaka (103,0 %) tumanlarida, hamda Andijon shahrida (117,4 %) sezilarli darajada oshdi.

Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Asaka tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 59,9 % i) hamda Andijon shahrida (16,4 %), Xonobod shahar (3,6 %), Andijon (2,3 %), Qo'rg'ontepa (2,1 %) va Xo'jaobod (2,1 %) tuman va shaharlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Buloqboshi (0,8 %), Bo'ston (0,8 %) hamda Ulug'nor (0,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka

(53 182,0 ming so'm), Xonobod shahar (24 739,8 ming so'm) va Andijon shahrida (10 791,6 ming so'm) tuman va shaharlarda o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (9 262,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 6 953,9 ming so'm bo'lgan holda, Asaka tumanida – 51 757,1 ming so'mni, Xo'jaobod tumanida – 5 467,7 ming so'mni, Andijon shahrida – 2 687,6 ming so'mni, Xonobod shahrida 2 597,8 ming so'mni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari		Iste'mol mahsulotlari		
	9 262,6		6 953,9		
	Andijon viloyati				
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	10 791,6	2 687,6		24 739,8	2 597,8
	Andijon sh.			Xonobod sh.	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 550,9	1 300,6		53 182,0	51 757,1
	Andijon			Asaka	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 727,8	1 019,2		1 627,7	1 519,7
	Baliqchi			Buloqboshi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 180,7	1 924,3		2 755,2	1 328,6
	Bo'ston			Jalaquduq	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 360,2	1 358,3		3 231,9	1 492,5
	Izboskan			Ulug'nor	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 576,0	916,2		2 758,2	2 218,4
	Marhamat			Oltinko'l	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 872,6	1 097,3		5 650,5	5 467,7
	Paxtaobod			Xo'jaobod	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 835,8	1 242,5		2 793,6	1 370,6
	Shahrixon			Qo'rg'ontepa	

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 580,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 8,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqbooshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shahrixon (82,0 %), Jalaquduq (80,0 %), Izboskan (71,2 %), hamda Andijon (67,2 %) shahar-tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Asaka tumani (2,0 %), Xonobod shahar (13,4 %) va Andijon shaharida (24,3 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 8291 dona sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 3049 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 36,8 % i) Andijon shahriga, 870 tasi (10,5 %) Asaka tumaniga, 657 tasi (7,9 %) Andijon tumaniga, 625 tasi (7,5 %) Shahrixon tumaniga, 446 tasi (5,4 %) Xo'jaobod tumaniga, 388 tasi (4,7 %) Oltinko'l tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda		Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda
36	Ulug'nor	86
34	Xonobod sh	143
99	Bo'ston	171
102	Paxtaobod	215
76	Marhamat	244
89	Buloqboshi	245
88	Baliqchi	262
117	Jalaquduq	280
89	Izboskan	285
111	Qo'rg'ontepa	325
111	Oltinko'l	388
143	Xo'jaobod	446
155	Shahrixon	625
143	Andijon	657
160	Asaka	870
710	Andijon sh	3049

2020- yilning yanvar - oktabr oyida viloyatda 2 263 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 710 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 31,4 %) Andijon shahrida, 160 tasi (7,1 %) Asaka tumanida, 155 tasi (6,8 %) Shahrixon tumanida, 143 tasi (6,3 %) Xo'jaobod tumanida, 143 tasi (6,3 %) Andijon tumanida tashkil etildi.


Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (870ta), Andijon (657 ta), Shahrixon (625 ta), Xo'jaobod (446 ta), Oltinko'l (388 ta), Qo'rg'ontepa (325 ta) va Izboskan tumanlarida (285 ta) hamda Andijon shaharida (3 049 ta) qayd etildi.

Viloyat miqyosida eng ko'p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 8 taligi
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)



Viloyat miqyosida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (280 ta), Baliqchi (262 ta), Buloqboshi (245 ta), Marhamat (244 ta), Paxtaobod (215 ta), Bo'ston (171 ta) va Ulug'nor tumanlarida (86 ta) hamda Xonobod shahrida (143 ta) faoliyat yurgizayotgan korxonalar qayd etildi.

Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (74) 228-30-42